

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.X.Hakimov, A.A.Abdumalikov, Ё.З.Нуриддинов Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.).....	5
D.E.Normatova, S.N.Muxammadova Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari.....	12
N.M.Axmadiyev Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	15
Д.А.Исаева Влияние медиа на развитие античной философской мысли	18
I.A.Asatulloev Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati	22
O.B.Shokirov Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	28
R.B.Abduraxmonov Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	32
X.J.Toshpo'latov Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari.....	36
A.I.Abdullaxo'jaev Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil	39
I.T.Yuldashev Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	43
A.A.A'zamjonov Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari.....	47
M.K.Soipova Fazl Ibn Ahmad ta'limotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili	51
S.F.Abdusattarova Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society.....	55
S.R.Xoldarov Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	60
Sh.B.Samanova Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni.....	66
R.Orziboyev G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili.....	70

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdagi imkoniyatlar	74
Ф.М.Бафоев Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике	80
A.To'xtasinov Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	84
U.U.Sattarov O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.....	88
B.T.Shokirov Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar	94



UO'K: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-MA'NAVY MUHIT BARQARORLIGINI
TA'MINLASHDA VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKA TIZIMINI YUKSALTIRISHNING FALSAFIY
MASALALARI**

**ФИЛОСОФСКИЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ
ВИКТИМОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ
СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**PHILOSOPHICAL ISSUES OF IMPROVING THE VICTIMOLOGICAL PREVENTION
SYSTEM IN ENSURING THE STABILITY OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE
NEW UZBEKISTAN**

Toshpo'latov Xusanboy Jo'raboyevich 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari, viktimologik profilaktika va uning jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashdagi dialektik xususiyatlari, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirish istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga doir zamonaviy konseptual yondashuvlar va qarashlar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы обеспечения устойчивости социально-духовной среды общества, виктимологическая профилактика и ее диалектические особенности в обеспечении устойчивости социально-духовной среды общества, а также перспективы совершенствования системы виктимологической профилактики в обеспечении устойчивости социально-духовной среды общества. устойчивость социально-духовной среды. изучена. Также были проанализированы современные концептуальные подходы и взгляды на обеспечение устойчивости социально-духовной среды в обществе.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of ensuring the stability of the socio-spiritual environment in society, victimological prevention and its dialectical features in ensuring the stability of the socio-spiritual environment in society, and the prospects for improving the victimological prevention system in ensuring the stability of the socio-spiritual environment. Modern conceptual approaches and views on ensuring the stability of the socio-spiritual environment in society are also analyzed.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy-ma'naviy muhit, ijtimoiy qonuniyatlar, viktimologik profilaktika, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, dialektik xususiyat, barqarorlik.

Ключевые слова: общество, социально-духовная среда, социальные законы, виктимологическая профилактика, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системность и функциональность, диалектичность, устойчивость.

Key words: society, socio-spiritual environment, social laws, victimological prevention, traditionalism and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systemic and functional, dialectical nature, stability.

KIRISH

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, xalq farovonligi uchun xizmat qilish, Yangi O'zbekiston davlatini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishish bugungi kundagi eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan Respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot hamda qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtalikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi

FALSAFA

“Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6196-son Farmoni qabul qilinganligi jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada samarali tashkil etish imkonini kengaytirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari, viktimologik profilaktika va uning jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashdagi dialektik xususiyatlari, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo’ravonlik hamda bolalarning viktimizatsiyasi holatlarining kelib chiqishi, bola huquqlarini ta’minlanishining xalqaro huquqdagi ahamiyatiga oid masalalar T.V.Varchuk, YE.N.Yershova, L.S.Alekseyeva, B.Neyl, A.L.Genley, B.Fortson, J.Klevens, M.Merrik, L.Gilbert, S.Aleksandr, S.Graxam, S.Limber, P.Olvis, L.V.Frank, D.V.Rivman, Y.M.Antonyan, V.S.Ustinov, I.A.Fargiyev, V.I.Polubinskiy, Q.R.Abdurasulova, I.U.Ismailov, J.S.Muxtorov, S.B.Xo’jaqulov, D.R.To’rayeva, Sh.K.Giyasov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta’kidlash joizki, hozirda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asosiy vazifalaridan biri jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash, xususan, aholining tinchligini, osoyishtaligini saqlash, har bir hududda barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ya’ni hayoti, sog’lig’i, sha’ni va qadr-qimmatini, mol-mulkini turli xil ko’rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishdir. Biroq, bugungi kunda butun dunyo muammosiga aylangan diniy ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, narkobiznes, qurol-yaroq savdosi kabi xalqaro jinoyatchilikning avj olishi butun jamiyat xavfsizligiga, barqarorlikka, olib borilayotgan tub islohotlarga, fuqarolarning hayoti, sog’lig’i va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga katta xavf tug’dirayotganligi hech kimga sir emas. Hozirda diniy ekstremistlar jinoyatchilikning eng jirkanch shakllaridan biri terrorizmdan foydalanmoqda. Buning oqibatida xalqaro miqyosidagi notinchliklar yuzaga kelib, insoniyat deb atalmish biologik mavjudotning boshiga turli balo-qazolarni solmoqda. Natijada, bu turdagi xalqaro miqyosdagi jinoyatlardan jabrlangan shaxslar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bundan tashqari, ayrim turdagi jinoyatlar, jumladan qasddan odam o’ldirish, qasddan badanga shikast yetkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, bezorilik, talonchilik, o’g’rilik, firibgarlik, tovlamachilik, transport vositasini o’g’irlash, transport vositasini olib qochish bilan bog’liq va boshqa jinoyatlarning hamda ma’muriy javobgarlik kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning sodir etilishi natijasida jabrlangan fuqarolarga mazkur turdagi huquqbuzarliklardan jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar yetkazilmoqda. Bu turdagi salbiy holatlarga yo’l quymaslik, xususan, shaxslarning turli ko’rinishdagi huquqbuzarliklardan jabrlanish xavfini kamaytirish hamda oldini olish maqsadida bugungi kunda ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi amalga oshirilib kelinmoqda.

Yangi O’zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash sohasida zo’ravonlik va uning bilan bog’liq huquqbuzarliklarning kelib chiqishi yoki sodir bo’lishini taqozo etuvchi omillarni aniqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning huquqiy asoslarini O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi, O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi 2019-yil 2-sentabr kunidagi 561-sonli Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 4-yanvar kunidagi 3-son qarori, “Voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi”, “Odam savdosiga qarshi kurashish”, “Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonunlar hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, jinoyat protsessual kodeksi, jinoyat kodeksi, ma’muriy-javobgarlik to’g’risidagi kodeks, oila kodeksi hamda Ichki ishlar vazirligining buyruqlari va boshqa normativhuquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 29-martdagi PF-27-sonli farmoni bilan birgalikda Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi va unda belgilangan vazifalar ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish hamda yangi bosqichlarga olib chiqishda, jinoyatchilikni yangi qirralari bilan kurashishda zamonaviy tajribalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida qabul qilingan farmon va qarorlar, konsepsiya hamda unda belgilangan vazifalar ham huquqiy asos hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, ilm yo'q joyda qoloqlik, johillik, yomonlik va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan biri biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz va bunda oilaning roli kattaligini, oila turmush borasidagi jinoyatlar, oilaviy ajrimlar kelajak avlodga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shulardan biri bo'lgan oiladagi tinchlikni saqlash oliy eng ulug' ne'mat ekanligini, barcha ichki ishlar organlari xodimlari xalq manfaati uchun xizmat qilishligi lozimligini Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida ham ustuvor vazifa qilib, belgilab berdilar.

Sharq donishmandlari ta'kidlaganidek, eng katta boylik bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya demakdir, deyilgan. Shu sabab, har bir inson hayotda adashmaslik uchun hayot saboqlari bilan birga zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib borib, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat sohibi bo'lishi uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi va yuqori cho'qqilarga erishishni maqsad qilishi lozim.

Aybli viktimlik potensial qurbonning salbiy, huquq va axloq nuqtai nazaridan nomunosib xulqidan iborat bo'lib, u jinoyat sodir etilishiga imkon beradigan omil hisoblanadi. Masalan, yo'l-transport hodisalaridan fuqarolarning ko'pgina qismi yo'l qoidalariga rioya qilmaganliklari oqibatida jabrlanadilar.

Aybsiz viktimlik umuman hayotda va jinoyatdan avvalgi vaziyatda ijtimoiy ma'qul axloqqa ega bo'lgan muayyan shaxsning (masalan, inkassator, mahalla posboni) mehnat yoki jamoat faoliyatining xususiyati bilan yoki psixofizik jihatlar (masalan, bola, qariya, bemorligi kabilar) bilan bog'liq.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi deb jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs tushuniladi. Ta'kidlash joizki, bir qator kriminolog tadqiqotlarda maishiy turmush munosabatlari doirasida zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga alohida e'tibor berilgan. Ayrim kriminologlar jinoyat jabrlanuvchilariga bevosita jinoyat natijasida zarar yetkazilgan alohida shaxslarni kiritishsa, boshqa birlari esa jabrlanuvchi qonuniy kuchga kirgan ayblovlarning hukmida jinoiy tajovuz natijasida zarar yetkazilgan deb tan olingan jismoniy shaxsdir deb e'tirof etishadi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi nuqtai nazaridan viktim holatlarning yuzaga kelishini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Huquqiy adabiyotlarda, shuningdek huquqshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida viktimlik insonning huquqbuzarlikdan jabrlanish imkoniyati emas, balki insonning huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan holati, degan qarashlar mavjud bo'lib, viktimlikning aybli va aybsiz turlari ajratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. – T., 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni.
3. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya Umumiy qism. Darslik// Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b.
4. Belov G. Istoriya filosofiya nauki. –Moskva: Izdatelskiy dom MGU, 2012. –432 s
5. Esanova Z.N. "Bola tarbiyasi bilan bog'liq nizolarnisudda ko'rishning protsessual xususiyatlari". // Mas'ul muharrir: Akademik, yu.f.d., prof. H.R.Rahmonqulov. – Toshkent.: TDYUI nashriyoti, 2010. - 289 b.
6. Miro'ktamova F. "Xalqaro standartlarni hisobga olgan holda voyaga yetmaganlar odil sudlovi tizimiga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar" –Toshkent, TDYUU, Yuridik fanlar axborotnomasi, 2019, №3. – B.147.
7. Varchuk T.V. Viktimologiya: ucheb.posobiye dlya studentov vuzov /T.V.Varchuk, K.V.Vishnevskiy; pod.pred. S.Y.Lebedeva. – M.: Yunita-Dana, 2008. –S. 38
8. Rivman D.V. Kriminalnaya viktimologiya. – SPb., 2002. – S. 26.